



## **ASRIYNING BADIY TASVIR VOSITALARIDAN FOYDALANISH MAHORATI**

**Fayzullayev Zavqiyjon Qobiljon o‘g‘li,**  
*Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207236>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Eron hududida yashab, ijod qilgan turkiynavis shoir Asriy Tabriziyning badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati haqida so‘z boradi. Tadqiqotda Asriy o‘z asarlarida Sharq mumtoz she‘riyati nazariyasining yirik yo‘nalishlaridan biri – ilmi bade‘ning 3 turi: ma‘naviy, lafziy va mushtarak san‘atlardan qanchalik istifoda eta olganligi tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** Asriy, ilmi bade‘, ma‘naviy, lafziy, mushtarak san‘atlar, tazod, tanosub, musajja, talmeh, ruju‘, tajnis.

Sharq, xususan, turkiy mumtoz she‘riyat asrlar davomida badiiy kashfiyotlarni yaratish borasida o‘zining boy nazariy zaxirasiga ega. Aniqroq qilib aytganda, klassik adabiyot nazariyasi 3 ta yirik yo‘nalishdan iborat: ilmi aruz, ilmi qofiya va ilmi bade‘.

Mazkur 3 yo‘nalishdan tadqiqotimizga taalluqli bo‘lgani ilmi bade‘ bo‘lib, u o‘z ichiga ma‘naviy san‘atlar, lafziy san‘atlar va mushtarak san‘atlar degan guruhlarini qamrab oladi. Shu o‘rinda bu guruhlariga muxtasar izoh berilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Ma‘naviy san‘atlar – nutqning ma‘no-mohiyati bilan aloqador bo‘lgan poetik san‘atlar.

Lafziy san‘atlar – nutqning ifoda usuli bilan aloqador badiiy san‘atlar majmuasi.

Shuningdek, yana bir turli san‘atlar borki, ular ham lafzga, ham ma‘noga aloqador. Ataulloh Husayniy bunday poetik figuralarni mushtarak san‘atlar deb aytaydi [6:14].

Asriy Tabriziy asarlarini diqqat bilan kuzatgan o‘qirman uning yuqoridagi u yoki bu guruhga kiradigan badiiy san‘atlardan mahorat foydalanganining guvohi bo‘ladi. Jumladan, tazod ma‘naviy san‘atlarning eng ta‘sirchan va ko‘p ishlatiladigan turlaridan biri bo‘lib, nasr va nazmda keng qo‘llanilgan.

Tazodning ta‘rifi masalasida barcha mualliflarning fikri bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Masalan, Rashiddin Vatvotda “bu san‘at shundan iboratki, kotib yo shoir



nasr yoki nazmda (ma’no jihatidan) bir-biriga zid bo‘lgan so‘zlarini keltiradi: issiq va sovuq, yorug‘ va qorong‘i, qo‘pol va nozik, qora va oq kabi” [6:65].

Asriy o‘z g‘azallarida tazod san’atidan unumli foydalangan:

Birdir maqomi ishqda sulton va gado,  
Kim unda mo‘r, taxta Sulaymon ilon chixor.

Yoki:

Zohiran qilsak nazar, yo‘xdur gadodan farqimiz,  
Botinan ko‘rsan bizi, shohona kelmishlardaniz.

Yana bir misol:

O‘lur bolo-vu pastin, usti ham osti,  
Dema: Dunyoda hech balo-vu past o‘ldum.

Yuqoridagi misollardan ko‘rishimiz mumkinki, “sulton” bilan “gado”, “zohiran” bilan “botinan”, “bolo” (baland) bilan “past” va “ust” bilan “ost” so‘zlarida tazod san’ati qo‘llanilgan.

Mumtoz adabiyotimizda tazod singari tanosub san’ati ham faol qo‘llaniladigan san’at bo‘lib, u baytda ma’no jihatdan bir-biriga aloqador va o‘zaro mutanosib so‘zlarni qo‘llashga asoslangan.

Asriy asarlarida tanosub san’ati ko‘p o‘rinlarda uchraydi. Masalan, birgina ushbu g‘azalni olaylik:

Ul kimsaki, zulfi siyahi yor ila o‘ynor,  
**Ganjinayi** husn uza yoton **mor** ila o‘ynor.  
Gesuyi sumanbo‘yi nigori ila oldim,  
**Zohid** dedi: “Box **kofira zunnor** ila o‘ynor”.  
**Ishq ahlina** hech ta’nayi ag‘yor asar etmaz,  
**Oshuqda** degun ta’nayi ag‘yor ila o‘ynor.  
**Gulchehr**larin hamdami o‘lmoq degil oson,  
So‘r **bulbula**, bir **g‘uncha** ichun **xor** ila o‘ynor.  
**Jannatdagi hurini** taxyil ila **zohid**,  
**Gesusi** deya, go‘shayi **dastor** ila o‘ynor.  
Bilmaz **marazi** ishqqa **davo** o‘lmodog‘in hech,  
Bechora **tabib oshiqi bemor** ila o‘ynor.  
Bir **qatra maya** la’noiy edar zohidi ablah,  
**Mayxonaya** qo‘y, **sog‘ari** sarshor ila o‘ynor.  
**Bazm** ichra uzun bahsi o‘lur zulfi nigorin,  
**Mutrib** u sababdin biliram, **tor** ila o‘ynor.

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”**  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Hab dushdi **go‘zallar** unin **husni**-la rivojdan,  
Box mo‘htakira, royiji bozor ila o‘ynor.

**Bazl** etma-da ul sho‘xa butun **naqdi** hayotin,  
Asriyni ko‘run, **dirham-u dinor** ila o‘ynor.

Mazkur g‘azalning qalin qilib yozilgan 30 ta so‘zida tanosub san’ati nihoyatda ustalik bilan qo‘llanilgan.

G‘azallar orasida musajja’ g‘azallar (saj’li g‘azallar) o‘quvchiga o‘zgacha estetik zavq berishi, g‘azalga yanada musiqiylik bag‘ishlashi bilan ajralib turadi. Asriy bisotida mana shunday saj’ usulida o‘zaro qofiyalangan satrlardan iborat ajoyib g‘azallar bor:

Soqiy! Pur et paymonani, davrona kel, davrona kel,  
Mastona sahbo sunmog‘a mastona kel, mastona kel.  
Mayxonamiz o‘lmush xarob, xuni jigardan der sharob,  
Soqiy! Karam qil, et shitob, davrona kel, davrona kel.  
Zohid! Riyodan o‘l bari, masjidida kel, dinin yeri,  
Ko‘r kufri zulfi anbari, iymona kel, iymona kel...

Klassik asarlarda tarixiy shaxslar yo tarixiy joy nomlari qayd etilsa, talmeh san’ati istifoda qilingan bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, Asriy ushbu san’at turiga ko‘p murojaat qilgan:

Manam ul oshiqi sodiq , maqomim dori kavnayndir,  
Cho‘li Majnuna verdim, dog‘lari Farhoda tark etdim...

Yoki:

Yo‘x dardi ishqa, onlaki, darmon deydiklari,  
Kor etmaz, o‘lmaz nusxayi Luqmon deydiklari.

Noseh! Gunoha kirmaki, xilqatdin olmishiq,  
Havvo-yu Odam o‘g‘lidir, inson deydiklari.

Yoxud:

Asriyo, biz kechmishiq Sherozdan odob ila,  
O‘zdutub Tabrez ila Shervona kelmishlardaniz.

Yana bir ma’naviy san’atlardan biri ruju’ bo‘lib, “bu usulning mohiyati shundan iboratki, shoir o‘z fikr va kechinmalarini bayon etish maqsadida turli obraz yoki iboralardan foydalanar ekan, tasvir jarayonida o‘zining oldingi fikrlari (iboralar, obrazlar)dan voz kechib, ularni rad etadi va ularning o‘rniga yangi obraz va iboralarni keltiradi. Go‘yo o‘z maqsadini to‘liq ifodalash uchun ojizlik qilgan ibora va obrazlar o‘rniga yangi, mukammalroqlarini qo‘yib, fikr va kechinmalarni yanada kuchliroq



shaklda bayon qiladi” [6:49]. Asriy ijodiyotida bu san’at turi bilan bog‘liq go‘zal namunalar bor:

Sani har ko‘rdugimda, boshqo bir olam bo‘lur paydo,  
Mana maqsud ulan olam, dur ko‘yinda der: jono.

Dur ko‘yinda der: jono mana maqsud ulan olam.  
Na olam – olami jannat, na jannat – jannati a‘lo.

Boshimdan ketmadi hargiz, sani la‘lingdagi lazzat,  
Na lazzat – lazzati shakkar, na shakkar – shakkari go‘yo...

“Badiiyat bor yerda san’at, san’at bor yerda mubolag‘a bo‘ladi!” deydi adabiyotshunoslar. Darhaqiqat, she‘rning oddiy so‘zdan farqi – uning tarkibida biror obraz, o‘xshatish yo mubolag‘a degan san’at turining borligida. Asriy mubolag‘aning eng yuqori turi bo‘lmish g‘uluvni qo‘llab shunday deydi:

Hala sargarmu siyohmast o‘lolim Hashra qadar,  
Bizi bedor etajak g‘ulg‘ulayi sur o‘lsin.

Asriyning lirik qahramoni Qiyomat kuniga qadar shu qadar mastki, uni faqat Isrofil degan farishta chaladigan nay – sur uyg‘ota oladi. Baytdagi syujet haqiqatdan yiroq bo‘lsa-da, o‘qirman muallifning bunday topildig‘iga g‘oyibona tan beradi va navbatdagi so‘z o‘yinlarini topishga oshiqadi.

Ham lafziy, ham ma‘naviy, ya‘ni mushtarak san‘atlardan biri tajnis bo‘lib, u “... lug‘aviy ma‘nosiga ko‘ra hamjins, jinsdosh ma‘nolarini anglatadi. Tajnis shaklan bir xil, biroq boshqa-boshqa ma‘nolarni ifodalovchi so‘zlar (omonim)ni qo‘llash orqali nozik so‘z o‘yinlarni ishlatishga imkon beradi” [6:59]. Tajnisning turlari ko‘p. Masalan, tajnisi tom, tajnisi noqis, tajnisi mukarrar, jinosi mafruq va h.k. Aynan jinosi mafruq – ajratilgan tajnis borasida Asriy g‘azaliyotida bir ajoyib misol bor:

Dedim: “Noz aylama, jono!”, “Na?” der u,

Dedi: “Bil, shevayi jononadir u”.

E‘tibor berilsa, “jonona” so‘zi birinchi misrada ajratib yozilganda boshqa, ikkinchi misrada to‘liq yozilganda boshqa ma‘noda qo‘llanilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Asriydan bizga juda kam miqdorda ijodiy namunalar yetib kelganiga qaramay, yuqorida tahlil qilingan misollarga ko‘ra, u salaflar yaratgan she‘riy san‘at sirlarini inkishof etganligini, aksar asarlarida an‘naviylikdan novatorlikka intilganligini, badiiy san‘atlardan zargarona foydalanib, Alisher Navoiy ta‘biri aytganda, “kalom ichra kamol” topganligini e‘tirof etish joiz.

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati/Tuzuvchi: E. Fozilov. To‘rt tomlik. T.1. Toshkent, 1983.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati/Tuzuvchi: E. Fozilov. To‘rt tomlik. T.2. Toshkent, 1983.
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati/Tuzuvchi: E. Fozilov. To‘rt tomlik. T.3. Toshkent, 1984.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati/Tuzuvchi: E. Fozilov. To‘rt tomlik. T.4. Toshkent, 1985.
5. Alisher Navoiy qomusiy lug‘ati. Ikkinchi jild. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik jamiyati kompaniyasi Bosh tahririyati, 2016.
6. Is‘hoqov Y. So‘z san‘ati so‘zligi. – Toshkent: “Zarqalam”, 2006.